

TILSHUNOSLIKDA RAVISH SO'Z TURKUMINING O'RGANILISHI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-26-815-823>

Xabibullayeva Fazilat Nuritdin qizi

TDSHU, Xitoyshunoslik Oliy maktabi magistratura 2-kurs

Ilmiy rahbar: PhD Xasanova Feruza

Saydullayeva.fazilat@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada ravish so'z turkumining umumiy tilshunoslikdagi o'rni, uning nazariy va amaliy talqinlari tahlil qilinadi. Ravishlarning morfologik va grammatik xususiyatlari, semantik guruhlari hamda sintaktik vazifalari o'zbek, ingliz va xitoy tillari misolida qiyosiy tarzda ko'rib chiqiladi. Turli olimlarning qarashlari, xususan, Aristotel davridan boshlab zamonaviy lingvistika vakillari — Jespersen, Bloomfield, Halliday hamda o'zbek tilshunoslari G'. Abdurahmonov, M. Asqarova, shuningdek, xitoy olimlari Lü Shuxiang, Zhou Youguang, Hashimoto va Hashimova tomonidan berilgan ta'riflar tahlil qilinadi. Qiyosiy tahlil orqali ravishlarning turli tillardagi umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlanadi. Maqola natijalari til o'rganuvchilar uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: ravish, morfologiya, semantika, sintaksis, qiyosiy tilshunoslik, o'zbek tili, ingliz tili, xitoy tili.

THE STUDY OF ADVERBS IN LINGUISTICS

Fazilat Nuritdin Qizi Khabibullayeva

Master's Student, 2nd Year, Higher School of Sinology,

Tashkent State University of Oriental Studies

Scientific Supervisor: PhD Feruza Khasanova

Saydullayeva.fazilat@mail.ru

Abstract: This article analyzes the role of adverbs in general linguistics and discusses their theoretical and practical interpretations. The morphological and grammatical features, semantic groups, and syntactic functions of adverbs are comparatively studied in Uzbek, English, and Chinese. The views of various scholars—from Aristotle to modern linguists such as Jespersen, Bloomfield, and Halliday, as well as Uzbek linguists G. Abdurahmonov, M. Asqarova, and Chinese linguists Lü Shuxiang, Zhou Youguang, Hashimoto, and Hashimova—are examined. Through comparative analysis, the common and distinctive features of adverbs in

different languages are revealed. The findings of the article highlight the theoretical and practical significance of adverbs for language learners.

Keywords: *adverb, morphology, semantics, syntax, comparative linguistics, Uzbek language, English language, Chinese language*

Ravish (adverb) soʻz turkumi tilshunoslik tarixida qadimdan grammatik birlik sifatida oʻrganilgan. Masalan, Jespersen “The Philosophy of Grammar” asarida ravish soʻz turkumini feʼl, sifat yoki boshqa ravishlarni aniqlovchi soʻz sifatida taʼriflab, nutqda harakatning qanday bajarilishini ifodalovchi vositalardan biri ekanini koʻrsatadi [1]. Keyinchalik lotin grammatikachilari ham ravishni feʼl bilan bevosita bogʻliq, uning tarzini ifodalovchi vosita sifatida izohlaganlar. Zamonaviy lingvistika esa ravishni mustaqil soʻz turkumi sifatida eʼtirof etib, uni semantik, morfologik va sintaktik jihatdan tahlil qilishni maqsad qilgan. Ravishlarning til tizimidagi oʻrni, avvalo, ularning feʼl, sifat, boshqa ravish hamda butun gapni aniqlash xususiyatida namoyon boʻladi. Masalan, ingliz tilshunosi O. Jespersen ravishni nutqda feʼlga qoʻshimcha maʼno yuklovchi birlik deb taʼriflagan [1]. L. Blumfeld esa ravishlarni feʼlning “qanday” bajarilishini bildiruvchi asosiy vositalardan biri sifatida talqin qiladi [2]. M. Halliday funksional lingvistika doirasida ravishlarni nutqning pragmatik qatlamida muhim semantik vosita sifatida oʻrganadi [3]. Oʻzbek tilshunosligida ravishlar oʻzgarmas soʻz turkumi sifatida taʼriflanib, ularning morfologik va semantik guruhlari keng oʻrganilgan. Jumladan, Gʻ. Abdurahmonov va M. Asqarova oʻzbek tilida ravish yasovchi qoʻshimchalar (-cha, -lab, -ona)ning faoliyatini tahlil qilganlar [4]. S. Hashimova esa xitoy tili grammatikasiga oid tadqiqotlarida ravishlarning turli tillardagi qiyosiy talqinini koʻrsatib, ularning nutqdagi aniqlik va obrazlilikni oshirishdagi rolini alohida taʼkidlaydi [5]. Xitoy tilshunosligida Lü Shuxiang, Zhou Youguang va Mantaro Hashimoto ravishlarni grammatik tizimning mustaqil qatlami sifatida koʻrib, ularning feʼl va sifat bilan uygʻunlashuv mexanizmlarini ilmiy asosda tadqiq etganlar [6][7][8]. Ularning qarashlariga koʻra, xitoy tilida ravishlarning asosiy grammatik vositasi “地 (de)” va “得 (de)” yordamida amalga oshadi.

Shunday qilib, ravishlar umumiy tilshunoslikda bir vaqtning oʻzida leksik-semantik va grammatik kategoriya sifatida oʻrganiladi. Ular nutqning aniqligini oshirish, feʼlning bajarilish holatini, harakatning darajasi, takroriyliigi va modal maʼnosini ifodalashda muhim vosita boʻlib xizmat qiladi. Shu sababli ravishlarning oʻrni nafaqat grammatik, balki uslubiy va pragmatik jihatdan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Ravish tilshunoslikda o'zgarmas, lekin semantik jihatdan juda faol so'z turkumlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Ular odatda harakat, belgi yoki boshqa ravishlarni aniqlash vazifasini bajaradi va shu jihatdan fe'l, sifat hamda boshqa so'zlarga ma'no jihatdan yaqinlashadi. Shu bilan birga, ravishlarning asosiy belgilaridan biri ularning so'z o'zgartiruvchi yoki shakl yasovchi qo'shimchalarni qabul qilmasligi hisoblanadi. Masalan, otlarda ko'plik yoki egalik qo'shimchalari mavjud, sifatlar esa daraja shakli qo'shilishi mumkin, biroq ravishlarda bunday imkoniyat yo'q. Shunga qaramay, tarixiy jarayonda ayrim qo'shimchalar ravish tarkibiga singib ketgan holda mustahkamlangan: *birdan, zimdan, to'satdan, kechasi, birga* kabi [9]. G'arb tilshunosligida ravishlar ko'plab olimlar tomonidan turlicha izohlangan. Masalan, Jespersen (1924) ravishni "**fe'lning belgisi**" deb atagan va uni sifat bilan qiyoslagan, biroq sifatning asosan otga, ravishning esa fe'lga taalluqli bo'lishini ta'kidlagan [1]. Bloomfield (1933) esa ravishlarni "**aniqlovchi vazifa bajaruvchi yordamchi so'zlar**" sifatida talqin etgan. Halliday (1967) o'zining funksional grammatika konsepsiyasida ravishlarning nafaqat fe'lni aniqlash, balki **matnni bog'lovchi va pragmatik vazifalarni** ham bajarishini alohida qayd etadi [10]. O'zbek tilshunosligida ham ravish so'z turkumi alohida o'rganilgan. G'. Abdurahmonov (1983) va M. Asqarova (1999) ularni mustaqil so'z turkumi sifatida tahlil qilib, ularning **gapdagi sintaktik vazifalari** hamda **yasalish jarayonlarini** batafsil ko'rsatib bergan [11]. Jumladan, ravishlarning ko'pchilik qismi aslida boshqa so'z turkumlariga oid bo'lgan birliklarning soddalashuvi yoki qo'shimchalar orqali ravishlashuvi natijasida shakllangan. Masalan, -cha, -lab, -larcha qo'shimchalari yordamida hosil bo'lgan ravishlar (*yashirincha, tezlab, bolalarcha*) bunga misoldir [12]. Xitoy tilshunosligida ravish (副词 *fùcí*) alohida turkum sifatida keng o'rganilgan. Lü Shuxiang (1980) ravishlarni doimiy ravishda **fe'l yoki sifat oldidan keladigan sintaktik birlik** sifatida talqin etadi [13]. Zhou Youguang (2001) va Hashimoto (1974) esa xitoy tilidagi ravishlarning morfologik jihatdan o'zgarmasligi, ammo sintaktik jihatdan harakatni chegaralash va aniqlashda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [14]. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotchi Hashimova (2017) xitoy tilidagi ravishlarning gapning **pragmatik ma'nosini belgilashdagi rolini** ko'rsatib, ularni turli semantik guruhlariga ajratib tahlil qiladi. Ingliz tilshunosligida ham ravishlar keng o'rganilgan. Adverbs ingliz tilida **fe'l, sifat yoki boshqa ravishlarni aniqlash** vazifasini bajarib, ko'pincha "qachon?", "qayerda?", "qanday?", "qanchalik?" kabi savollarga javob beradi. Masalan: *I quickly closed the door* (Men eshikni tez yopdim), *He writes beautifully* (U chiroyli yozadi) kabi [15]. Ingliz tilidagi ravishlar bir nechta asosiy guruhlariga bo'linadi:

- **Adverbs of Time (Payt ravishlari):** *yesterday, now, soon*

- **Adverbs of Place (O‘rin ravishlari):** *here, there*
- **Adverbs of Degree (Daraja ravishlari):** *very, quite*
- **Adverbs of Manner (Holat ravishlari):** *slowly, carefully* [16].

Demak, o‘zbek, xitoy va ingliz tilshunosligida ravishlar turlicha talqin etilgan bo‘lsa-da, ularni umumlashtiradigan jihat shundaki, ravishlar har doim **harakatni aniqlovchi va gapning mazmunini to‘ldiruvchi birlik** sifatida qaraladi. Turli tillarda ularning shakllanishi, sintaktik vazifasi va semantik guruhlariga ajratilishi farqlansa-da, barchasida ravish nutqning muhim komponenti sifatida qadrlanadi. Shuningdek, ingliz tilida **adverbial phrases** (ravishiy birikmalar) ham mavjud bo‘lib, ular bitta ravishdan (*quickly*) yoki bir nechta so‘z birikmasidan (*in a hurry*) tashkil topishi mumkin. Bu birikmalar matnga obrazlilik va aniqlik bag‘ishlaydi [17].

Ravishlar umumiy tilshunoslikda o‘zgaras so‘z turkumi sifatida ta’riflanadi. Ularning asosiy grammatik belgisi shundaki, ular ot, sifat yoki fe’l kabi shakl o‘zgartiruvchi qo‘shimchalarni qabul qilmaydi [1]. Masalan, otlarda ko‘plik qo‘shimchasi (-lar), egalik qo‘shimchasi (-im, -ing) mavjud bo‘lsa, sifatlarga daraja shakllari (-roq, eng) qo‘shilishi mumkin, biroq ravishlarda bunday imkoniyat yo‘q. Shu sababli ravishlarning o‘zgaruvchanlik darajasi nolga teng bo‘lib, ular faqat gapdagi sintaktik vazifasi va semantik yuklamasi bilan farqlanadi. O‘zbek tilida ravishlarning shakllanishida so‘z yasovchi qo‘shimchalar muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, -cha, -lab, -ona qo‘shimchalari orqali yangi ravishlar hosil qilinadi. Masalan, *yashirinch*a, *tezlab*, *bolalarch*a kabi shakllar boshqa so‘z turkumlaridan ravishga aylangan birliklardir [4]. Bundan tashqari, ba’zi ravishlar tarixan ot yoki sifat tarkibidan kelib chiqqan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan mustaqil ravish sifatida mustahkamlangan: *birdan*, *zimdan*, *kechasi*, *birga* va boshqalar [4].

Xitoy tilshunosligida ravishlar (副词 *fùcí*) morfologik jihatdan ham o‘zgaras birliklar hisoblanadi. Ularning asosiy shakllanish mexanizmi sintaktik ko‘rsatkichlar yordamida amalga oshadi. Jumladan, “地 (*de*)” qo‘shimchasi sifatni ravishga aylantiradi: 慢地走 (*màn de zǒu* – sekin yurmoq), “得 (*de*)” esa fe’l va ravish orasida kelib, harakatning tarzini bildiradi: 跑得快 (*pǎo de kuài* – tez yugurmoq) [13][14]. Demak, xitoy tilida ravish yasovchi vositalar so‘z oxiriga emas, balki gap tarkibida fe’l yoki sifat bilan grammatik aloqaga kirishishi bilan ajralib turadi.

Ingliz tilida esa ravishlarning morfologik shakllanishida -ly qo‘shimchasi eng asosiy vosita hisoblanadi. Masalan, *quick* → *quickly*, *beautiful* → *beautifully*, *careful* → *carefully* kabi birliklar sifatdan ravishga o‘tgan shakllardir [16]. Ingliz tili grammatikasida -ly qo‘shimchasining universal xususiyati shundaki, u deyarli

barcha sifatlarni ravishga aylantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ingliz tilida qo'shimchasiz shaklda keladigan ravishlar ham mavjud: *fast, hard, late, well* kabi so'zlar shaklan sifat bilan bir xil bo'lsa-da, gapda ravish vazifasida ishlatiladi [17].

Shunday qilib, o'zbek, xitoy va ingliz tillarida ravishlarning grammatik va morfologik xususiyatlari turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi. O'zbek tilida ular ko'proq affiksial (so'z yasovchi qo'shimchalar orqali), xitoy tilida sintaktik vositalar yordamida, ingliz tilida esa derivatsion (-ly) qo'shimchasi orqali shakllanadi. Biroq ularning umumiy jihati – o'zgaras so'z turkumi sifatida fe'l, sifat yoki boshqa ravishlarni aniqlash va gapning ma'nosini to'ldirishdir.

Ravishlar semantik xususiyatlariga ko'ra bir necha guruhlariga ajratiladi. Ularning bunday tasnifi tilshunoslikda keng qo'llanilib, harakatning vaqtini, uslubini, darajasini, davomiyligini, tasdiq yoki inkorini hamda ehtimolini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi. Ingliz, o'zbek va xitoy tillarida semantik guruhlar umumiy bo'lsa-da, ularning ifodalanish shakllari turlicha bo'lishi mumkin [1; 2; 3].

1. Vaqt ravishlari

Vaqt ravishlari harakatning qachon bajarilishini bildiradi. O'zbek tilida *hozir, darhol, ertaga* kabi so'zlar qo'llanadi. Masalan: *Men hozir kitob o'qiyapman*. Xitoy tilida 现在 (*xiànzài* – hozir), 马上 (*mǎshàng* – darhol) kabi birliklar mavjud: 我马上来 (*Wǒ mǎshàng lái* – Men darhol kelaman). Ingliz tilida esa *now, immediately, tomorrow* kabi so'zlar ishlatiladi: *She will arrive tomorrow* [15].

2. Daraja ravishlari

Daraja ravishlari belgining kuchini bildiradi. O'zbek tilida *juda, nihoyatda* kabi birliklar keng ishlatiladi: *Bu kitob juda qiziqarli*. Xitoy tilida esa 很 (*hěn* – juda), 非常 (*fēicháng* – nihoyatda) ishlatiladi: 天气非常冷 (*Tiānqì fēicháng lěng* – Havo nihoyatda sovuq). Ingliz tilida *very, extremely* keng tarqalgan: *He is very clever* [1; 4].

3. Takror va davomiylik ravishlari

Bu guruhdagi ravishlar harakatning qayta yoki uzluksiz bajarilishini ko'rsatadi. O'zbek tilida *yana, tez-tez* ishlatiladi: *U yana telefon qildi*. Xitoy tilida 又 (*yòu* – yana), 常常 (*chángcháng* – tez-tez) mavjud: 我常常去图书馆 (*Wǒ chángcháng qù túshūguǎn* – Men tez-tez kutubxonaga boraman). Ingliz tilida *again, often*: *They often play football after school* [2; 6].

4. Tasdiq va inkor ravishlari

Ravishlarning bu guruhi gapning tasdiq yoki inkor mazmunini ifodalaydi. O'zbek tilida *albatta, emas* ishlatiladi: *Men albatta boraman*. Xitoy tilida 一定

(yiding – albatta), 不 (bù – yo‘q): 我不喜欢咖啡 (Wǒ bù xǐhuān kāfēi – Men kofeni yoqtirmayman). Ingliz tilida esa *certainly, not: She will certainly help you* [3; 7].

5. Uslub va holat ravishlari

Harakatning qanday bajarilishini bildiradi. O‘zbek tilida *sekin, diqqat bilan: U mashinani sekin haydadi*. Xitoy tilida 慢慢地 (mànmàn de – sekin), 仔细地 (zǐxì de – diqqat bilan): 请仔细地听 (Qǐng zǐxì de tīng – Iltimos, diqqat bilan tinglang). Ingliz tilida *slowly, carefully: She spoke slowly and clearly* [1; 4].

6. Ehtimol va taxmin ravishlari

Bu guruh voqea-hodisaga nisbatan taxminni bildiradi. O‘zbek tilida *balki, ehtimol: Ehtimol, bugun yomg‘ir yog‘ar*. Xitoy tilida 也许 (yěxǔ – balki), 可能 (kěnéng – ehtimol): 他也许迟到 (Tā yěxǔ chídào – U balki kech qoladi). Ingliz tilida *maybe, perhaps: Maybe she will join us later* [4; 6].

Demak, o‘zbek, ingliz va xitoy tillarida ravishlarning semantik guruhlari bir xil bo‘lsa-da, ularning grammatik ifodalanish usullari turlicha. O‘zbek tilida asosan mustaqil so‘z shakllari, ingliz tilida -ly qo‘shimchasi yoki mustaqil ravishlar, xitoy tilida esa maxsus grammatik ko‘rsatkichlar orqali yuzaga chiqadi. Bu esa ravishlarning umumiy tilshunoslikdagi universalligini va har bir til tizimiga xos o‘ziga xosliklarini namoyon etadi [4; 6]. Ravishlar uch tilda ham mustaqil so‘z turkumi sifatida mavjud bo‘lib, ular fe‘l, sifat yoki boshqa ravishlarni aniqlashda xizmat qiladi. Biroq ravishlarning morfologik hosil bo‘lish usullari va sintaktik qo‘llanilishi har bir tilda o‘ziga xosdir. O‘zbek tilida ravishlar asosan qo‘shimchalar yordamida yasaladi. Masalan, **-cha** (sekincha), **-lab** (tezlab), **-ona** (odamona) qo‘shimchalari orqali yangi ravishlar hosil qilinadi. Bundan tashqari, ravishlarning mustaqil shakllari ham mavjud: *bugun, kecha, hozir, birdan, tez-tez*. Sintaktik jihatdan ravishlar gapda fe‘lning belgisi sifatida ko‘proq ishlatiladi: *U mashinani sekin haydadi*. Ingliz tilida ravishlarning asosiy yasaliş vositasi -ly qo‘shimchasidir: *quick → quickly, careful → carefully, beautiful → beautifully*. Biroq, hamma ravishlar ham -ly yordamida yasalavermaydi: *soon, very, often, here, now* kabi shakllar mustaqil ravish sifatida mavjud. Sintaktik jihatdan ingliz ravishlari fe‘l, sifat yoki butun gapni aniqlashi mumkin: *She spoke slowly. / It is very important. / Maybe he will come*. Xitoy tilida ravishlar asosan mustaqil so‘zlar sifatida keladi va qo‘shimcha yasaliş jarayoni o‘zbek va ingliz tillaridagidan farq qiladi. Morfologik jihatdan ravishlar maxsus affiksiz qo‘llanadi: 马上 (mǎshàng – darhol), 常常 (chángcháng – tez-tez), 一定 (yīdìng –

albatta). Ammo sintaktik jihatdan ravishlar ko‘pincha “地” (de) va “得” (de) yordamida fe‘l yoki sifat bilan bog‘lanadi: 他慢慢地走 (Tā màn màn de zǒu – U sekin yurdi); 他说得很快 (Tā shuō de hěn kuài – U tez gapirdi).

O‘xshashlik: Uchala tilda ham ravishlar fe‘lni, sifatni yoki boshqa ravishni aniqlash vazifasini bajaradi. Ular vaqt, uslub, daraja, takror, ehtimol kabi semantik guruhlarga bo‘linadi.

Farqlar: O‘zbek va ingliz tillarida ravishlar asosan affikslar orqali yasaladi, xitoy tilida esa ular mustaqil so‘z shaklida qo‘llanadi va sintaktik belgilar (地, 得) yordamida bog‘lanadi. Ingliz tilida ravish butun gapni ham aniqlashi mumkin, xitoy va o‘zbek tillarida esa asosan fe‘l yoki sifatga bog‘lanadi.

O‘zbek, ingliz va xitoy tillarida ravishlarning qiyosiy tahlili

Xususiyatlar	O‘zbek tili	Ingliz tili	Xitoy tili
Morfologik hosil bo‘lishi	Qo‘shimchalar orqali: -cha (sekincha), -lab (tezlab), -ona (odamona)	-ly qo‘shimchasi orqali: quick → quickly; shuningdek mustaqil shakllar (soon, often)	Mustaqil so‘zlar (马上 mǎshàng), sintaktik vositalar: 地 (de), 得 (de)
Sintaktik vazifasi	Asosan fe‘lni aniqlaydi (U sekin gapirdi)	Fe‘l, sifat, ravish yoki butun gapni aniqlaydi (She spoke slowly / Maybe he will come)	Asosan fe‘l yoki sifatni aniqlaydi (他慢慢地走 Tā màn màn de zǒu)
Semantik guruhlari	Vaqt, daraja, uslub, ehtimol, inkor va b.	Vaqt, daraja, uslub, ehtimol, inkor va b.	Vaqt, daraja, uslub, ehtimol, inkor va b.
O‘xshashlik	Fe‘l va sifatni aniqlaydi, semantik guruhlari bir xil	Fe‘l, sifat va butun gapni aniqlashi mumkin	Fe‘l va sifatni aniqlaydi, lekin “de” yordamida bog‘lanadi
Farqlar	Asosan affikslar orqali hosil bo‘ladi	-ly eng ko‘p qo‘llanadi, ba’zida mustaqil ravishlar mavjud	Mustaqil so‘zlar va sintaktik markerlar orqali ifodalanadi

Xitoy tilshunoslari so‘zlarni turkumlarga ajratishda ko‘pincha uning ma’nosiga e’tibor qaratishadi. Xitoy tilidagi hamma so‘zlar ma’nosiga ko‘ra ikki katta guruhga ajratiladi. Birinchi guruh mustaqil so‘z turkumlari deb nomlanadi. Bunday guruhga mansub birliklarning ma’nolari aniq bo‘lib, ular predmet, son, harakat-holatni ifodalaydi. Ikkinchi guruh yordamchi so‘z turkumlaridir. Yordamchi so‘z turkumlariga mansub birliklar alohida olinganda mustaqil ma’noga ega bo‘lmaydi, biroq gap tarkibida grammatik ma’noni hosil qiladi[20]. Xitoy tilida 很 (juda), 颇

(o'ta), 都 (butkul; hammasi), 只 (faqat), 才 (endigina), 忽 (to'satdan), 渐 (asta), 再 (yana), 必 (albatta), 又 (qayta), 不 (yo'q; emas), 未 (emas) birliklari nafaqat biron predmetni ifodalaydi, balki otlar bilan birikma hosil qilib ham aniq tushunchani anglatmaydi. Bu kabi so'zlar ravishlar bo'lib, ularni "yarim mustaqil so'zlar" hisoblash mumkin[20]. Ravishlar til tizimida mustaqil grammatik birlik sifatida nutqning aniqligi va ravonligini ta'minlovchi muhim so'z turkumidir[4]. Ular harakat, holat yoki boshqa belgilarni aniqlash orqali gapning ma'no qatlamini kengaytiradi hamda ifodaning uslubiy boyligini oshiradi. Shuning uchun ham ravishlar faqat grammatik qurilma emas, balki nutqning semantik va kommunikativ mazmunini shakllantiruvchi asosiy unsurlardan biri hisoblanadi.

Ravishlarning til tizimidagi ahamiyati ularning turli kontekstlarda qo'llanish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Ular nutqda vaqt, daraja, uslub, ehtimol, tasdiq va inkor kabi turli ma'no sohalarini ifodalaydi. Shu orqali ravishlar matnga jonlilik, aniqlik va tabiiylik baxsh etadi[4]. Aynan shu xususiyatlari tufayli ular badiiy asarlarda obrazlilikni kuchaytirishda, ilmiy nutqda aniq tafsilot berishda, og'zaki muloqotda esa his-tuyg'u va munosabatni ifodalashda keng qo'llaniladi[10].

Turli tillarda ravishlarning o'ziga xosligi ularning qiyosiy tadqiqini yanada dolzarb qiladi[1]. Chunki qiyoslash jarayonida til o'rganuvchi nafaqat grammatik shakllanish usullarini, balki mazmuniy va uslubiy imkoniyatlarni ham chuqurroq anglaydi[2]. Bu esa tilni amaliy o'rganishda, tarjimada va lingvistik tahlilda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi[6].

Xulosa qilib aytganda, ravishlarning nazariy tadqiqi ularning grammatik va semantik tizimdagi o'rnini belgilashga xizmat qilsa, amaliy jihatdan ular nutq madaniyatini shakllantirish va samarali kommunikatsiyani ta'minlashda beqiyos ahamiyatga ega[3]. Shu sababdan, ravishlarni chuqur o'rganish nafaqat lingvistik nuqtai nazardan, balki amaliy til o'rganishda ham zaruriy masalalardan biridir[4;6].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Jespersen, O. *The Philosophy of Grammar*. London: Allen & Unwin, 1924.
2. Bloomfield, L. *Language*. – New York: Holt, 1933.
3. Halliday, M.A.K. *An Introduction to Functional Grammar*. – London: Edward Arnold, 1985.
4. Abdurahmonov G'., Asqarova M. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.
5. Hashimova S. *Xitoy tili grammatikasi*. – Toshkent: Navro'z, 2017.
6. Lü Shuxiang. *Xiandai Hanyu Babai Ci*. – Beijing: Shangwu Yinshuguan, 1980.

7. Zhou Youguang. Vvedenie v kitayskiy yazyk. – Moskva: Vostochnaya literatura, 2001.
8. Hashimoto, Mantaro J. The Structure of Chinese Adverbs and Adverbials. – The Journal of Chinese Linguistics, Vol. 2, No. 1, 1974.
9. Abdurahmonov, G'. (1983). *Hozirgi o'zbek tili*. Toshkent.
10. Halliday, M.A.K. (1967). *Notes on Transitivity and Theme in English*. Journal of Linguistics.
11. Asqarova, M. (1999). *O'zbek tili grammatikasi*. Toshkent.
12. Eurasian Journal Of Technology And Innovation, Vol.1, Issue 5, 2023.
13. Lü Shuxiang (1980). *Xiandai Hanyu Babai Ci* (Modern Chinese 800 Words). Beijing.
14. Zhou Youguang (2001). *The Birth of Chinese Linguistics*. Beijing.
15. Problems And Solutions Of Scientific And Innovative Research, Vol.1, Issue 1, 2024.
16. Swan, M. (2005). *Practical English Usage*. Oxford.
17. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. (1985). *A Comprehensive Grammar of the English Language*. London.
18. Feruza Khasanova (2020). Introduction of baihua in periodicals. Tashkent.
19. Khasanova, Feruza. "The Role Of Baihua In Chinese Linguistics." *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research* 2.10 (2020): 97-102.
20. Feruza Xasanova (2021). XITOY-BAIHUA TILINING LEKSIK-SEMANTIK VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI. Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. Toshkent.
21. Khasanova, Feruza. "ON THE ISSUE OF THE CHRONOLOGY OF THE HISTORY OF THE BAIHUA LANGUAGE" *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, vol. 1, no. Special Issue 1, 2021, pp. 200-216. doi:10.24412/2181-1784-2021-1-200-216
22. Каримов Акрамджан. "СЕМАНТИЧЕСКИЕ РЯДЫ КИТАЙСКИХ ЭКВИВАЛЕНТОВ К СЛОВУ «ЧИТАТЬ»" *Sharq ma'shali / Восточный факел*, vol. 14, no. 1, 2022, pp. 43-52. doi:10.5281/zenodo.7190498
23. Хасанова, Феруза Мирзабековна. "Лексико-семантический анализ лексики произведений Лао Шэ." *Universum: филология и искусствоведение* 11 (78) (2020): 31-34.